https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Abdurashidova Mashhura Husniddinovna

Tel.:901991716.email.abdurashidovamashhura206@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Psixologiya mutaxasisligi magistranti

IJTIMOIY TARMOQLARNING O'SMIR QIZLAR XULQ-ATVORIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI: DEVIANTLIK KONTEKSTIDA TAHLIL.

Annotatsiya: Zamonaviy raqamli jamiyatda o'smir qizlar uchun ijtimoiy tarmoqlar ta'sirchan omil sifatida rol o'ynamoqda. Xususan, media makonida yuzaga kelayotgan virtual aloqalar, kontent iste'moli va onlayn tendensiyalar deviant xulq-atvor shakllanishiga salbiy turtki berishi hech birimizga sir emas. O'smirlik- shaxs hayotida o'ta muhim ahamiyatga ega bosqich bo'lib, ushbu davrda o'smirda shaxsiy "men"ini tanish, jamiyatda o'z o'rnini toppish jarayoni faollashadi. Ushbu maqolada virtual muhitning o'smir qizlar xulq-atvoriga psixologik ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'smir yoshdagi qizlar, virtual tarmoq, deviantlik, xulq-atvor,raqamli jamiyat,psixologik ta'sir, o'z-o'zini anglash, Albatta, quyidagi matningizni to'liq va grammatik jihatdan to'g'ri rus tiliga tarjima qildim.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ПОВЕДЕНИЕ ДЕВУШЕК-ПОДРОСТКОВ: АНАЛИЗ В КОНТЕКСТЕ ДЕВИАНТНОСТИ

Абдурашидова Машхура Хусниддиновна

Магистрантка направления «Психология» Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Аннотация:В современном цифровом обществе социальные сети играют значительную роль как фактор психологического воздействия на девушек-подростков. В частности, виртуальные коммуникации, потребление контента и онлайн-тренды, возникающие в медиапространстве, могут стать негативным стимулом к формированию девиантного поведения. Подростковый возраст — это важный этап в жизни личности, когда активизируются процессы самопознания и поиска своего места в обществе. В данной статье рассматривается психологическое влияние цифровой среды на поведение девушек-подростков, особенно с точки зрения проявлений девиантности.

Ключевые слова: девушки-подростки, социальные сети, девиантность, поведение, цифровое общество, психологическое воздействие, самопознание.

THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF SOCIAL NETWORKS ON ADOLESCENT GIRLS' BEHAVIOR: AN ANALYSIS IN THE CONTEXT OF DEVIANCE

Mashhura Husniddinovna Abdurashidova

Master’s student in Psychology, Samarkand State University

named after Sharof Rashidov

Annotation: In today’s digital society, social networks play a significant role as a psychological influence on adolescent girls. In particular, virtual communication, content consumption, and online trends emerging in the media space may serve as negative stimuli contributing to the development of deviant behavior. Adolescence is a critical stage in personal development, during which the processes of self-identification and social integration become especially active. This article explores the psychological impact of the digital environment on adolescent girls’ behavior, with a specific focus on manifestations of deviance.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Keywords: adolescent girls, social networks, deviance, behavior, digital society, psychological impact, self-awareness.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatda o'sib kelayotgan yosh avlodning kognitiv, affektiv va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga chuqur integratsiyalashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotimizdagi o’rnini inkor etib bo’lmaydi, ijtimoiy tarmoqlarda nafaqat vaqtimiz, balki ruhiy sog’lig’imizni ham qurbon berishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar yangi hodisa bo’lgani uchun uning atrofida hali hanuz to’liq tadqiqotlar olib borilgani yo’q. Tadqiqotlarga ko’ra butun dunyoda 3milliard kishi, sayyorada 40 foiz inson ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishadi. Izlanishlar bir kunda o’rtacha ikki soat ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o’tkazishimizni tasdiqlamoqda. Umuman olganda, bu raqamlar ham nisbiy ko’rsatkichlar bo’lib, aslida ijtimoiy tarmoqlarda ayrim insonlarning, xususan o’smir yoshlarning vaqtining katta qismi o’tib ketmoqda. Bu har daqiqada yarim million tvit va snapchat dasturida qayta ishlangan fotosuratni ulashish demakdir.

Ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi jamiyat hayotida voyaga yetayotgan o’smir bolalarda o’z-o’zini anglash (sef-awarenes) va psixologik salomatlikka to’g’ridan-to’g’ri ta’sir etuvchi omil sifatida qaralmoqda. O’z-o’zini anglash psixologik konstrukt sifatida o’smirlarning avtorefleksiya, o’ziga nisbatan metakognitiv baho hamda ijtimoiy identifikatsiya jarayonlarini qamrab oladi. Ushbu konsepsiya dastlab mashhur olim James tomonidan 1890-yilda shaxsiy “men” nazariyasi doirasida tahlil etilgan bo’lib, keyinchalik tadqiqotchilar, Mead (1934) va Cooley (1902) ilmiy faoliyatlarida ijtimoiy dinamikaga bog’liq holda talqin qilingan.

Ijtimoiy tarmoqlarda voyaga yetmagan o’smir bolalarning faol ekanligi asosan oilaviy muhitda mavjud bo’lgan kamchiliklarga ham bog’liq bo’lib, nosog’lom oilaviy muhitda tarbiyalanayotgan bola aqliy va hissiy bo’shliqni (yolg’izlik, tan olinmaganlik hissi) virtual olamga berilib ketish orqali to’ldirmoqchi bo’ladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Media tarmoqlarida o'zi uchun do'st, sirdosh topishga intiladi. Yoxud ijtimoiy tarmoqlardagi hatto yaxshi tanimagan insonlarga taqlid qiladi, o'zi uchun ulardek hayot tarzini qurishga harakat qiladi. Shu o'rinda quyida nosog'lom oila muhitining ayrim asosiy jihatlarini keltirib o'tishni lozim topdikki, ota-onalar, oila boshliqlari farzand tarbiyasida o'ta xushyor bo'lishlari va bunday xatolarga yo'l qo'ymasliklari maqsadida ularga eslatma bo'lsin:

1. E'tibor yetishmovchiligi: Oilada qiz bolalarga e'tiborning kamligi, ularning ehtiyoj va hissiyotlarini e'tiborsiz qoldirilishi qizlarda o'z-o'ziga bahoning pasayishiga va atrofdagilarning diqqatini tortish uchun turli nojo'ya xatti-harakatlarga qo'l urishiga sabab bo'ladi.
2. Emotsional dastakning yetishmasligi: O'smir qizlar bu yosh davrida emotsional qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lishadi. Hissiy dastakning yetishmasligi o'smirlarda o'zini yolg'iz his qilish, boshqa yo'llar bilan e'tibor qozonishga intlish singari jarayonlarni yuzaga keltiradi. Aksincha, oilada qo'llab quvvatlashning ta'minlanganligining qizlar psixologiyasiga ijobiy ta'siri ilmiy adabiyotlarda ham aks etgan. [1]"Ota-onaning qo'llab-quvvatlashi o'zaro hurmatga asoslangan oilaviy munosabatlar va qadriyatlar o'smir qizlarning o'zlarini yaxshi his qilshlariga va ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni namoyon qilishlariga yordam beradi"
3. Oila boshliqlarining kuchli nazorati yoki jazolovchi munosabati: Me'yordan ortiq nazorat yoki jazolovchi munosabatlar o'smir qizlarda oila ichidagi qoidalardan qochish va o'zini himoya qilish maqsadida qarshi harakatlar qilishga tutrki bo'ladi.
4. Ota-onalarning tarbiya borasida o'ta ko'ngilchanlik qilishlari: [2]"Kichikligidan boshlab so'ragan hamma narsasi berilgan bolalar uch narsani – haqiqiy xursandchilik va intilish nima ekanligini bilmaydilar, ota-onasini hurmat qilmaydilar."

[1] Rivkin G.S. "O'smir qizlarda xulq-atvor buzilishlarining oldini olish usullari" Nashriyot 2001. 47-bet.
[2]Masaru Ibuka "Uchgacha ayni vaqti" Nashriyot 2020. 16-bet.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Yoshlikdan o'g'il va qizlar tarbiyasini o'ta yumshoqlik bilan olib borish ham bolalarda katta hayotga mustaqil qadam qo'yishdan qo'rqish, qiyinchilikka chidamsizlik, qat'iyatsizlik, muhim qarorlarni mustaqil qabul qila olmaslik, yashab turgan hayotidan mamnun bo'lmaslik kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bundan tashqari, nosog'lom oilada tarbiya topgan qizlarda xulq-atvor og'ishishining kuzatilishi, aksariyat hollarda ular bolaligida va o'smirlik davrida uchragan stressva travmalar bilan bog'liq bo'ladi. Bunday oilalarda voyaga yetayotgan qizlar har xil ruhiy va ijtimoiy ta'sirlarga duch kelishi mumkin, bu esa ularning normal rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va xulq-atvor buzilishlari (deviantlik) ni yuzaga keltiradi.

MUHOKAMA

Deviant xulq namoyon bo'lishining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. O'z-o'ziga bo'lgan ishonchning yetishmasligi va bahoning pastligi:

Ijtimoiy muhitda, jamiyat hayotida o'zini to'g'ri ifoda qila olmaslik, qadrsizlik va ishonchsizlik tuyg'ularini boshdan kechirish, individual qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltira olmaslik.

2. His-tuyg'ularini nazorat qila olmaslik, agressiv xatti-harakatlarni namoyon qilish: Oilda emotsional qo'llab-quvvatlash yetishmasligi kuzatilsa, bu oila tarbiyalanuvchilari turli vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini jilovlashda qiynalishlari va o'zini himoya qilish maqsadida baqirish, haqoratlash, tajovuzkorlik yoki boshqa zo'ravonlik xatti-harakatlarini namoyon qilishlari mumkin. Psixolog Barkova, o'zining "Psixologiya Yoshi va xulq-atvor" deb nomlangan kitobida o'smir qizlarda kuzatiladigan agressiya, tushkunlik holatlarini quyidagicha bayon qiladi: [3]"O'smirlik davrida o'zini anglash, xatti-harakatlarini teran o'ylab ko'rish qiyinlashganda' ba'zi o'smirlar jismoniy yoki ruhiy muommolarni boshdan kechiradilar, bu esa agressivlik, depressiya yoxud o'ziga zarar yetkazish singari xulq-atvor buzilishlarini yuzaga keltirishi mumkin."

[3] Barkova M.A. "Psixologiya yoshi va xulq-atvor" Nashriyot 1998.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

3. O'qishga va mehnatga bo'lgan qiziqishning yo'qolishi: Nosog'lom oila muhitida olingan tarbiya qizlarda tantiqlik, dangasalik, irodasizlik kabi jihatlarni paydo qilishi mumkin. Aksincha, o'smir qizlarga oilada e'tiborsizlik, qo'llab-quvvatlashning yo'qligi tufayli ular ijtimoiy faoliyatga, o'qish yoki mehnatga loqayd munosabatda bo'lishlari mumkin. Natijada, motivatsiyaning pasayishi hamda o'z imkoniyatlarini cheklash holati yuz berishi mumkin.

4. Psixologik muommolar: Nosog'lom oilada voyaga yetgan qizlarda depressiya, stress, xavotir kabi psixologik muommolar boshqa tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada ko'p uchraydi.

5. Atrofdagilarning e'tibor markazida bo'lishga intilish, nojo'ya xatti-harakatlar: E'tibor yetishmovchiligida voyaga yetgan qizlar diqqat-e'tiborni boshqa yo'llar bilan jalb qilishga harakat qiladilar. Bu diqqatni tortish uchun noto'g'ri do'stlar topish, chekish, narkotik moddalarni sinab ko'rishga intilish kabi zararli odatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

6. Nosog'lom munosabatlarga moyillik: O'smir yoshdagi qiz bola oilada yetishmagan emotsional yaqinlik, dastakni tashqi muhitdan izlay boshlaydi. Bu esa ularni nosog'lom munosabatlar girdobiga tushib qolish xavfini orttiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan xulq-atvor buzilishlarinng oldini olish (profilaktika) va maksimal darajada kamaytirish uchun oilada ijobiy muhit yaratish, ota-onalarning mehr-e'tiborini qizlarga to'g'ri yetkazib bera olishi shuningdek, mahallalarda, ta'lim muassasalarida psixologmutaxassislar tomonidan yordam ko'rsatilishi, yoshlarda psixologik immunitetni shakllantira bilish bugungi kunda hayotimizning asosiy masalalari sanaladi. Zero, sog'lom oilada yetuk shaxslar yetishib chqadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijtimoiy tarmoqlar o'smir yoshlarning o'z-o'zini anglash va psixologik salomatligiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Ular o'z-o'zini ifodalash va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish imkoniyatini namoyon qilish bilan birga, psixologik salomatlik buzilishlari va axborort tahdidlarini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

kuchaytirishi hamda, o'smir yoshdagi o'quvchi qizlarda deviant xulq-atvor ko'rinishlarining kelib chiqishiga zamin yaratishi mumkin. Axborot xavfsizligi buzilishlari natijasida o'smirlar o'zlarini ijtimoiy tarmoqlarda Xavfsiz his qilmasligi, bu esa ularda tashvish, depressiya va ijtimoiy izolyatsiya simptomlarini kuchaytirishi mumkin. Shu bois, o'smirlar o'rtasida axborort xavfsizligi madaniyatini rivojlantirish, raqamli savodxonlik-internetdan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, shu bial birga, psixologik profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish dolzarb masala bo'lib qolaveradi.

Shu o'rinda ayrim chora-tadbirlar tavsiya qilinadi:

1. O'smirlar uchun axborot xavfsizligi bo'yicha treninglar tashkil qilish;
2. Onlayn faoliyatga xavfsizlik siyosatini tatbiq etish. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtini cheklash uchun raqamli detoks dasturlarini joriy etish;

O'smirlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan psixologik intervensiyalarni o'tkazish.

GLOSSARY

1. Ijtimoiy media iste'moli- bu foydalanuvchilarning turli ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalardan foydalanish darajasi, chastotasi va usullarini ifdalovchi tushuncha.
2. Ijtimoiy taqqoslash (social comparison)- shaxsning o'zini boshqalar bilan solishtirish odati, bu ijtimoiy tarmoqlardagi idealizatsiyalangan tasvirlar ta'sirida ortishi mumkin.
3. FoMO (Fear of Missing Out)- muhim yoki qiziqarli voqealarni o'tkazib yuborish qo'rquvi, bu ijtimoiy tarmoqlardagi doimiy kuzatuv natijasida yuzaa kelishi mumkin.
4. Raqamli identifikatsiya(digital identity)- shaxsning onlayn muhitda yaratgan va boshqalar tomonidan qabul qlingan virtual shaxsiyati.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

5. Internet qaramligi (Internet addiction)- kishining ijtimoiy tarmoqlarga haddan ortiq bog'lanib qolishi, bu uning real hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
6. Kiberbyulling- ijtimoiy tarmoqlar orqali tahdid qilish, kamsitish yoki shaxsiy hayotga daxl qilish harakatlari.
7. Xayoliy auditoriya fenomeni - shaxsning doimiy ravishda kuzatilayotgani yoki baholanayotgani haqidagi noto'g'ri tasavvuri, ijtimoiy tarmoqlarda postlar joylashtirish natijasida yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarov F.S. - O'smirlik davridagi muommolar va ularning yechimi. Nashriyot 2006-yil.
2. Barkova M.S. - Psixologiya yoshi va xulq-atvor. Nashriyot 1998-yil.
3. Masaru Ibuka. - Uchgacha ayni vaqti. Nashriyot 2020-yil. 16-bet
4. Rivkin G.S. - O'smir qizlarda xulq-atvor buzilishlarining oldini olish usullari. Nashriyot 2001. 47-bet
5. Festinger, L. (1954). A Theory of Social Comparison Processes. Human Relations.
6. Boyd, D. (2014). It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens.

a